

**RESPUBLIKA IXTISOSLASHTIRILGAN TRAVMATOLOGIYA VA
ORTOPEDIYA ILMIY-AMALIY TIBBIYOT MARKAZI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.06.2025.27.12.Tib.19.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI

QOBILOV NODIR RUSTAM-O'G'LI

**SON SUYAGI SINGAN KEKSA VA QARILIK YOSHIDAGI
BEMORLARNI RATSIONAL OPERATSIYA OLDI TAYYORLASH VA
DAVOLASH ISTIQBOLINI ANIQLASH**

14.00.22 – Travmatologiya va ortopediya

**TIBBIYOT FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of Dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)

Qobilov Nodir Rustam-o‘g‘li

Son suyagi singan keksa va qarilik

yoshidagi bemorlarni ratsional operatsiya

oldi tayyorlash va davolash istiqbolini aniqlash..... 3

Кобилев Нодир Рустам-угли

Рациональная предоперационная

подготовка и прогнозирование исходов

лечения переломов бедренной кости у больных

пожилого и старческого возраста..... 23

Kobilov Nodir Rustam-ugli

Rational preoperative preparation and

prognostic assessment of treatment outcomes

in elderly and senile patients with femur fractures..... 45

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 50

**RESPUBLIKA IXTISOSLASHTIRILGAN TRAVMATOLOGIYA VA
ORTOPEDIYA ILMIY-AMALIY TIBBIYOT MARKAZI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.06.2025.27.12.Tib.19.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI

QOBILOV NODIR RUSTAM-O'G'LI

**SON SUYAGI SINGAN KEKSA VA QARILIK YOSHIDAGI
BEMORLARNI RATSIONAL OPERATSIYA OLDI TAYYORLASH VA
DAVOLASH ISTIQBOLINI ANIQLASH**

14.00.22 – Travmatologiya va ortopediya

**TIBBIYOT FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Tib2863 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat tibbiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.uzniito.uz), «Ziyonet» Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) va Milliy axborot agentligining portalida (www.uza.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Karimov Murodulla Yuldashevich**
tibbiyot fanlari doktori

Rasmiy opponentlar: **Xudayberdiev Qobil Tursunovich**
tibbiyot fanlari doktori, professor

Valiyev Erkin Yuldashevich
tibbiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: **Samarqand davlat tibbiyot universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Respublika ixtisoslashtirilgan travmatologiya va ortopediya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi huzuridagi DSc.06.2025.27.12.Tib.19.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil «_____» _____ kuni soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100147, Toshkent shahri, Maxtumquli ko‘chasi, 78. Tel.: (+99871) 233-10-30; e-mail: niito-tashkent@yandex.ru, Respublika ixtisoslashtirilgan travmatologiya va ortopediya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi).

Dissertatsiya bilan Respublika ixtisoslashtirilgan travmatologiya va ortopediya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ _____ bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100147, Toshkent shahri, Maxtumquli ko‘chasi, 78. Tel.: (+99871) 233-10-30.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil «_____» _____ da tarqatildi.
(2026-yil «_____» _____ dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

M.E. Irismetov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
tibbiyot fanlari doktori (DSc), professor

U.M. Rustamova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
tibbiyot fanlari doktori (DSc), katta ilmiy xodim

A.P. Alimov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi
Ilmiy seminar raisi, tibbiyot fanlari doktori (DSc)

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo miqyosida kuzatilayotgan demografik o'tish jarayonlari aholining global qarishi va milliy sog'liqni saqlash tizimlariga tibbiy-ijtimoiy yuklamaning keskin ortishi bilan tavsiflanmoqda. Prognozlarga ko'ra, «...2050 yilga kelib 60 yoshdan oshganlar ulushi dunyo aholisining 22 % ini tashkil etadi, 80 yoshdan oshganlar soni esa uch barobarga ortib, 426 million kishiga yetadi...»¹. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida ham keksa aholi (60 yosh va undan kattalar) ulushi «...o'rtacha 9,4 % ni tashkil etadi...»². Ushbu demografik jarayonlar fonida son suyagi sinishlari keksa va qariya yoshdagi bemorlarda yuqori o'lim, funksional mustaqillikning yo'qolishi hamda og'ir ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlar bilan kechuvchi dolzarb klinik muammo bo'lib, ularni davolashning asosiy maqsadi bemorni minimal hayotiy xavf sharoitida imkon qadar tezroq oldingi harakatchanligi va o'z-o'ziga xizmat qilish darajasiga qaytarishdan iboratdir.

Hozirgi kunda xalqaro travmatologiya va ortogeriatrya sohasida keksa yoshdagi bemorlarda son suyagi sinishlarini davolash natijalarini yaxshilashga qaratilgan kompleks yondashuvlar faol rivojlanmoqda. Ular qatoriga somatik holat va komorbidlikni ko'p omilli baholash, operatsiyagacha tayyorgarlikni optimallashtirish, davolash taktikasini individuallashtirish, integratsiyalashgan ortogeriatryk boshqaruv modellarini joriy etish, perioperatsion xavfni stratifikatsiya qilish, anemiya hamda yallig'lanish buzilishlarini korreksiya qilish, osteosintez va endoprotezlash o'rtasida asoslangan tanlovni amalga oshirish, shuningdek, kam invaziv fiksatsiya texnologiyalarini qo'llash kiradi. Shu bilan birga, hozirgi vaqtgacha keksa yoshdagi bemorlar uchun ratsional operatsiyagacha tayyorgarlikning yagona standartlari ishlab chiqilmagan, davolash natijalarini ishonchli prognoz qilish mezonlari yetarli darajada aniqlanmagan hamda individual yondashuvni tizimlashtirish masalalari to'liq hal etilmagan. Shu munosabat bilan, son suyagi sinishlari kuzatilgan keksa va qarilik yoshidagi bemorlarni ratsional operatsiyagacha tayyorlash hamda davolash natijalarini prognozlashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni olib borish ilmiy jihatdan asoslangan bo'lib, muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda tibbiy yordam xizmatining asosiy vazifalaridan biri tayanch-harakat tizimi, ayniqsa, keksa aholida uchraydigan son suyagi sohasidagi shoshilinch holatlarda ko'rsatiladigan yordam sifatini tubdan yaxshilash, kompleks maqsadli chora-tadbirlarni amalga oshirishdir. Shu o'rinda, «...sog'lom turmush tarzini shakllantirish va aholining jismoniy faolligi darajasini oshirish...»³ kabi ustuvor vazifalar yiqilishlarning oldini olish, jarohatlar sonini kamaytirish hamda ularning oqibatlarini yengillashtirishga xizmat qiladi. Zamonaviy

¹ Канев А.Ф., Кобякова О.С., Куракова Н.Г., Шибалков И.П. Старение населения и устойчивость национальных систем здравоохранения. Обзор мировых практик. *Национальное здравоохранение*. 2023;4(4):5–13

² «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. O'zbekiston Respublikasining demografik holati. – Toshkent, 2024. – https://stat.uz/img/demografiya-press-reviz-22_07_2024-uzb-_p62648.pdf

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi PF-4947-son Farmoni.

travmatologiyaning dolzarb yo‘nalishlaridan biri — son suyagi sinishi kuzatilgan keksa va qarilik yoshidagi bemorlarda operatsiya oldi tayyorgarlikni tizimli ravishda standartlashtirish hamda jarrohlik aralashuvi uchun optimal muddatni ilmiy asosda belgilash orqali davolash samaradorligini oshirish, asoratlarni kamaytirishdir. Bemorning umumiy somatik holatini kompleks baholash, individual davolash taktikasini tanlash hamda asoratlar xavfini kamaytirish jarrohlikdan keyingi nogironlik va qaramlik darajasini pasaytirib, funksional faollik hamda hayot sifatini saqlashga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv keksa yoshdagi bemorlarga tibbiy yordam samaradorligini oshirishga qaratilgan zamonaviy travmatologiyaning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 12-apreldagi «Aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish va sog‘liqni saqlash sohasida kadrlar salohiyatini yanada oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-6-sonli Qarori; 2022-yil 25-apreldagi «Aholiga birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini yanada yaqinlashtirish va tibbiy xizmat samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-215-sonli Qarori; 2022-yil 16-iyundagi «Aholiga shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida»gi PQ-283-sonli Qarori hamda mazkur sohada qabul qilingan boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlarga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VI. «Tibbiyot va farmakologiya» ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Keksa va qarilik yoshidagi bemorlarda son suyagi sinishlari tayanch-harakat tizimining eng og‘ir travmatik shikastlanishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu jarohatlarning uchrash chastotasi barcha sinishlarning taxminan 5–10 % ini, oyoq sinishlarining esa 40 % gacha qismini tashkil etib, ayniqsa keksa yosh guruhida yuqori o‘lim va nogironlik ko‘rsatkichlari bilan kechishi davolash muammosining dolzarbligini belgilaydi (Veronese N. et al., 2018; Schnell S. et al., 2010). Son suyagi sinishlarini davolash kompleksida asosiy muhokama qilinayotgan masalalar qatoriga erta va aniq diagnostika, optimal davolash usulini tanlash, jarrohlik aralashuvining ko‘rsatmalari va muddatini aniqlash, shuningdek osteosintez yoki endoprotezlashning eng maqbul texnologiyasini qo‘llash kiradi (Ricci W.M. et al., 2010; Neuman M.D. et al., 2014). Bunday jarohatlarni davolash murakkab bo‘lib, turli tadqiqotlarga ko‘ra, keksa bemorlarda bir yillik o‘lim darajasi 20–30 % gacha yetadi, funksional mustaqillikning tiklanmasligi esa bemorlarning sezilarli qismida kuzatiladi (Haentjens P. et al., 2010; Schnell S. et al., 2010). Bundan tashqari, son suyagi sinishidan keyingi bosqichda deliriy, pnevmoniya, tromboembolik holatlar hamda yurak-qon tomir tizimiga oid asoratlarning tez-tez kuzatilishi operatsiya oldi tayyorgarlikni optimallashtirish va jarrohlik xavfini har bir bemorda alohida, individual mezonlar asosida baholashni taqozo etadi (Jameson S. et al., 2012; Nichols C.I., Vose J.G., 2017). Zamonaviy ortopediya amaliyotida operativ davolash erta mobilizatsiyani ta‘minlab, gipostatik asoratlar

rivojlanish xavfini kamaytirishi va hayot sifatini yaxshilashi isbotlangan bo'lsa-da, komorbid holatlar, tizimli yallig'lanish reaksiyasi hamda umumiy somatik zaiflik jarrohlik natijalarini sezilarli darajada cheklab qolmoqda (Yu W. et al., 2016; Prestmo A. et al., 2015). Proksimal son suyagi sinishlarida perioperatsion boshqaruvning murakkabligi, ayniqsa anesteziologik xavfni kamaytirish, gemodinamik barqarorlikni saqlash va asoratlarni erta profilaktika qilish muhimligini ta'kidlaydilar (Axtyamov I.F., 2018), shuningdek endoprotezlash amaliyotida asoratlar xavfi bemorning umumiy somatik holati va hamroh patologiyalar bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatadilar (Parshikov M.V., 2022).

O'zbekiston olimlari tomonidan son suyagi sinishlarini davolash masalalari bo'yicha qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, ularda keksa bemorlarda jarrohlik davolashning ustuvorligi, umumiy somatik holat va hamroh kasalliklarning davolash natijalariga ta'siri ko'rsatib berilgan (Davlatov K.X., 1990; Alibekov M.M., 2001; Dursunov A.M., 2013). Son suyagini proksimal qismini davolashda suyak usti osteosintezi uchun moslamalar ixtiro qilingan va takomillashtirilgan (Shamshimetov D.F va boshqalar, 2011, Dursunov A.M., 2013). Operatsiya oldi tayyorgarlik bo'yicha bir nechta usullar taklif etilgan (Dursunov A.M., Saydiyatxonov S.S., Qodirov R.R., Sopaev Z.) hamda metabolik sindrom va komorbid holatlar fonida sinishlarni baholash masalalari Karimov M.Y. va Yakubjanov R.R. (2021) tomonidan tadqiq etilgan.

Keksa va qarilik yoshidagi bemorlarda son suyagi sinishlarini jarrohlik yo'li bilan davolash qanchalik keng qo'llanilayotgan bo'lsa ham, bu jarayonda bir qator murakkab klinik muammolar hal etilmaganligicha qolmoqda. Bir yillik o'lim darajasi keksa bemorlar orasida 12–37 % atrofida bo'lib, operatsiya oldi va perioperatsion davrda yallig'lanish, respirator hamda qon tomir asoratlari katta xavf sifatida qolmoqda, bu esa jarrohlikni rejalashtirish va natijalarini bashorat qilishni murakkablashtiradi (Shloush A. et al., 2025; Alsheikh K. et al., 2020). Jarrohlikdan keyingi rehabilitatsiya va funktsional tiklanish jarayonlari bo'yicha klinik protokollar ko'p mamlakatlarda mavjud bo'lsa-da, keksa bemorlarning individual holati, komorbid kasalliklar va yallig'lanish jarayonlarini inobatga olingan holda erta mobilizatsiya va mustaqil harakatlanishni ta'minlovchi yagona standartlar hali ishlab chiqilmagan (Tarazona-Santabalbina F.J. et al., 2016). Yuqorida qayd etilgan holatlarni inobatga olgan holda, mazkur tadqiqot keksa va qarilik yoshidagi bemorlarda son suyagi sinishlarida ratsional operatsiya oldi tayyorgarlikni takomillashtirish, individual xavfni baholash hamda jarrohlik uchun optimal va xavfsiz vaqt oralig'ini aniqlash orqali davolash samaradorligini oshirishga qaratilgan.

Dissertasiya tadqiqotining dissertasiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertasiya ishi Toshkent davlat tibbiyot universitetining 011.001.56-son "Yirik bo'g'imlar va qo'l-barmoq jarohatlari va kasalliklarini kompleks diagnostika va davolash" ilmiy-tadqiqot rejasiga muvofiq 2020–2025 yillarda bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi son suyagi singan keksa va qariya bemorlarda yallig'lanish markerlari hamda komorbid holatlarni kompleks baholash asosida

jarrohlik amaliyotidan oldingi tayyorgarlikni optimallashtirish va davolash natijalarini yaxshilash.

Tadqiqotning vazifalari:

keksa va qarilik yoshidagi son suyagi sinishi bo‘lgan bemorlarda jarrohlik aralashuvi bilan bog‘liq operatsiya xavfni baholash maqsadida so‘rovnoma ishlab chiqish va uning klinik ahamiyatini aniqlash;

bemorlarda komorbid holatini baholash uchun ishlab chiqilgan klinik-laborator mezonlar asosida xavf omillarini aniqlash;

keksa va qarilik yoshidagi son suyagi sinishi bo‘lgan bemorlarda yallig‘lanish faolligi markerlarini (C-reaktiv oqsil, Interleykin 6, leykotsitlar soni, tana harorati) hisobga olgan holda jarrohlik aralashuvini o‘tkazish uchun xavfsiz vaqt oralig‘ini tanlash usulini ishlab chiqish;

keksalik va qarilik yoshidagi bemorlarda jarrohlik amaliyotidan keyingi yaqin va uzoq muddatli natijalarni o‘rganish;

Tadqiqotning obyekti sifatida 2020-2025 yillarda Toshkent davlat tibbiyot universiteti ko‘p tarmoqli klinikasi shoshilinch travmatologiya bo‘limida “Keksa va qariya bemorlarda son suyagi sinishi tashxisi bilan davolangan 144 nafar bemor olingan.

Tadqiqotning predmeti sifatida instrumental va laborator tekshiruvlar, ishlab chiqilgan elektron dasturlar va statistik ishlanmalar orqali olingan tadqiqot natijalari keltirilgan.

Tadqiqot usullari. Ilmiy tadqiqot jarayonida klinik, yallig‘lanish markerlari, rentgenologik, MSKT, KT-densitometriya (Hounsfield) va ultratovush dupleks skanerlash usullaridan foydalanilgan. Funktsional shkalalar va statistik tahlil usullari yordamida davolash natijalarini baholangan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

tizimli tahlil asosida ishlab chiqilgan, xavf omillari va komorbid holatlarni qamrab oluvchi ixtisoslashtirilgan so‘rovnomaning qo‘llanilishi — son suyagi sinishi bilan kasallangan keksa va qarilik yoshidagi bemorlarda operatsiya xavfi darajasini aniqlash, yuqori xavf guruhiga mansub bemorlarni o‘z vaqtida aniqlash hamda operatsiyadan oldingi tayyorgarlik jarayonini individuallashtirish imkonini berishi isbotlangan;

keksa va qariya yoshdagi bemorlarda son suyagi sinishlarida yallig‘lanish faolligi markerlari — C-reaktiv oqsil, interleykin-6, leykositlar miqdori va tana haroratini hisobga olgan holda jarrohlik amaliyoti uchun xavfsiz vaqt oralig‘ini aniqlash usuli ishlab chiqilgan hamda ushbu yondashuv operatsiyadan keyingi asoratlarni 1,7 martaga kamaytirishi va davolash natijalarini yaxshilashi isbotlangan;

keksa va qariya yoshdagi bemorlarda son suyagi sinishlarida 43 ta komorbid omilning kompleks tahlili asosida, patogenetik xususiyatlarga tayanuvchi va yallig‘lanish komponenti ustun bo‘lgan shaxslarni aniqlashga yo‘naltirilgan ishchi tasnif ishlab chiqilganligi — ushbu guruhdagi bemorlarda operatsiyadan keyingi infeksiyon asoratlarni rivojlanish xavfini prediktiv baholash va samarali prognozlash imkonini berishi asoslab berilgan;

keksa va qariya yoshdagi son suyagi sinishi bo'lgan bemorlarda yallig'lanish markerlarining (C-reaktiv oqsil, interleykin-6, leykositlar miqdori va tana harorati) diagnostik ahamiyati, sezuvchanligi hamda spesifikligini aniqlash — operatsiyadan keyingi jarrohlik infeksiyon asoratlari rivojlanish xavfini prognozlash imkonini berishi, shuningdek, klinik amaliyotda ularni barvaqt aniqlash va o'z vaqtida profilaktika qilishni ta'minlashi isbotlangan;

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

keksa va qarilik yoshdagi son suyagi sinishi bo'lgan bemorlarda ishlab chiqilgan operatsion xavfni kompleks baholash so'rovnomasini yuqori xavf guruhiga mansub bemorlarni erta aniqlash, jarrohlikdan oldingi tayyorgarlik hajmini individuallashtirish imkonini berdi;

keksa va qariya bemorlarda son suyagi sinishida xirurgik amaliyot uchun optimal xavfsiz vaqt oralig'ini belgilashda ishlab chiqilgan usul xavfsiz jarrohlik muddatini aniqlashda yordam berdi va jarrohlikdan keyingi asoratlarni xavfini sezilarli darajada kamaytirdi;

son suyagi sinishi kuzatilgan keksa va qariya bemorlarda aniqlangan 43 ta komorbid omilning patogenetik tasnifidan amaliy foydalanish yallig'lanish komponenti ustun bo'lgan bemorlarni ajratib ko'rsatish, ularda infeksiyon asoratlarni rivojlanish xavfini oldindan prognoz qilish hamda profilaktik davolash choralarini maqsadli rejalashtirish imkonini berdi;

yallig'lanish markerlariga asoslanib ishlab chiqilgan usul jarrohlikdan keyingi yiringli-infeksiyon asoratlarni chastotasini kamaytirish, bemorlarning erta mobilizatsiyasi va rehabilitatsiyasini ta'minlash, shuningdek davolanish muddatini qisqartirish orqali umumiy davolash samaradorligini oshirish imkonini berdi.

Olingan natijalarning ishonchligi obyektiv, klinik-laborator, instrumental va radiologik tadqiqot usullari, Statistica 10.1 va Microsoft Excel 2016 dasturlari yordamida statistik tahlil natijalari hamda dalillarga asoslangan tibbiyot tamoyillari asosida tasdiqlandi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, keksa va qariya yoshdagi son suyagi sinishi kuzatilgan bemorlarda jarrohlik bilan bog'liq operatsion xavfni kompleks baholashga mo'ljallangan klinik va umumiy somatik ko'rsatkichlarga asoslangan maxsus so'rovnoma ishlab chiqildi hamda yallig'lanish markerlarini hisobga olgan holda jarrohlik aralashuvi uchun xavfsiz vaqt oralig'ini aniqlash usuli ilmiy jihatdan asoslandi. Komorbid holatlarning patogenetik xususiyatlari tahlil qilinib, yallig'lanish komponenti ustun bo'lgan bemorlarni aniqlash va operatsiyadan keyingi infeksiyon asoratlarni xavfini oldindan baholash imkonini berishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan operatsion xavfni kompleks baholash usullari, yallig'lanish markerlariga asoslangan xavfsiz jarrohlik muddatini tanlash tamoyillari hamda infeksiyon asoratlarning oldini olishga qaratilgan profilaktik algoritmlarni klinik amaliyotga joriy etish orqali yuqori xavf guruhidagi bemorlarni erta aniqlash, jarrohlikdan oldingi tayyorgarlikni individuallashtirish, perioperatsion va yiringli-infeksiyon asoratlarni chastotasini kamaytirish, erta mobilizatsiya va rehabilitatsiyani ta'minlash hamda

davolash muddatini qisqartirish hisobiga klinik-funksional natijalarni yaxshilash imkonini berishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarini joriy qilinishi. Sogʻliqni saqlash vazirligi huzuridagi Ilmiy texnik kengashning 2026 yilning 16-fevraldagi 3-son bayonnomasi xulosasiga asosan (Sogʻliqni saqlash vazirligiga Toshkent davlat tibbiyot universitetining 2026 yil 10-fevraldagi 1968-son xati yuborilgan):

birinchi ilmiy yangilik: tizimli tahlil asosida ishlab chiqilgan, xavf omillari va komorbid holatlarni qamrab oluvchi ixtisoslashtirilgan soʻrovnomaning qoʻllanilishi — son suyagi sinishi bilan kasallangan keksa va qarilik yoshidagi bemorlarda operatsiya xavfi darajasini aniqlash, yuqori xavf guruhiga mansub bemorlarni oʻz vaqtida aniqlash hamda operatsiyadan oldingi tayyorgarlik jarayonini individuallashtirish imkonini berishi isbotlangan. Tadqiqot natijalari Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi Andijon filiali (12.12.2025; №298-son) hamda Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti klinikasi (17.12.2025; №12) klinikalari amaliyotiga joriy etildi. *Ilmiy yangilikning ijtimoiy samaradorligi* quyidagilardan iborat: ishlab chiqilgan soʻrovnoma yordamida bemorlarni operatsion xavf darajasi boʻyicha stratifikatsiya qilish imkoniyati yaratildi, bu esa jarrohlik taktikasini individual tanlashga, yuqori xavf guruhidagi bemorlarda asoratlarni va letallik xavfini kamaytirishga xizmat qildi. *Ilmiy yangilikning iqtisodiy samaradorligi* quyidagilardan iborat: jarrohlik xavfini aniqlash soʻrovnomasining joriy etilishi natijasida operatsiya oldi tayyorgarlik sifati oshib, jarrohlikdan keyingi asoratlarni kamayishi tufayli, bemorning shifoxonada qolish muddati oʻrtacha 3 kunga qisqardi. Bemorning shifoxonadagi bir kunlik davolanishi oʻrtacha 487000 soʻmni tashkil qilsa, 3 kunga qisqarishi hisobiga bir bemordan 1461000 soʻm mablagʻ iqtisod qilindi; *Xulosa:* klinik va umumiy somatik koʻrsatkichlarni integratsiyalovchi maxsus soʻrovnomaning qoʻllanilishi, son suyagi sinishi boʻlgan keksa va qarila bemorlarda jarrohlik xavfini obyektiv bashorat qilish hamda asoratlarni tufayli kelib chiqadigan iqtisodiy yoʻqotishlarning oldini olish orqali 1 nafar bemor uchun oʻrtacha 1461000 soʻm miqdoridagi iqtisodiy samaradorlikka erishish imkonini berdi;

ikkinchi ilmiy yangilik: keksa va qarila yoshdagi bemorlarda son suyagi sinishlarida yalligʻlanish faolligi markerlari — C-reaktiv oqsil, interleykin-6, leykositlar miqdori va tana haroratini hisobga olgan holda jarrohlik amaliyoti uchun xavfsiz vaqt oraligʻini aniqlash usuli ishlab chiqilgan hamda ushbu yondashuv operatsiyadan keyingi asoratlarni 1,7 martaga kamaytirishi va davolash natijalarini yaxshilashi isbotlangan. Tadqiqot natijalari Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi Andijon filiali (12.12.2025; №298-son) hamda Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti klinikasi (17.12.2025; №12) klinikalari amaliyotiga joriy etildi. *Ilmiy yangilikning ijtimoiy samaradorligi* quyidagilardan iborat: jarrohlik aralashuvini optimal vaqtda bajarish orqali infeksiya asoratlarni chastotasining 1,7 martaga kamayishi, bemorlarning erta aktivlashtirilishi va reabilitatsiya jarayonlarining tezlashishi bilan ifodalanadi. *Ilmiy yangilikning iqtisodiy samaradorligi* quyidagilardan iborat: jarrohlik aralashuvini asossiz kechiktirish yoki erta bajarish bilan bogʻliq asoratlarni kamayishi hisobiga shifoxonada yotish muddati qisqardi, qayta davolash

va qo'shimcha antibiotik terapiyaga bo'lgan ehtiyoj kamaydi. Bu esa bir bemor uchun davolash xarajatlarini kamaytirish va statsionar resurslardan samarali foydalanish imkonini berdi. Bemorning shifoxonadagi bir kunlik davolanishi o'rtacha 487000 so'mni tashkil qilsa, 3 kunga qisqarishi hisobiga bir bemordan 1461000 so'm mablag' iqtisod qilindi; *Xulosa*: yallig'lanish markerlariga asoslangan holda xavfsiz operatsion vaqtni tanlash klinik natijalarni yaxshilash bilan bir qatorda iqtisodiy jihatdan ham samarali ekanligi isbotlandi;

uchinchi ilmiy yangilik: keksa va qariya yoshdagi bemorlarda son suyagi sinishlarida 43 ta komorbid omilning kompleks tahlili asosida, patogenetik xususiyatlarga tayanuvchi va yallig'lanish komponenti ustun bo'lgan shaxslarni aniqlashga yo'naltirilgan ishchi tasnif ishlab chiqilganligi — ushbu guruhdagi bemorlarda operatsiyadan keyingi infeksiyon asoratlarni rivojlanish xavfini prediktiv baholash va samarali prognozlash imkonini berishi asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi Andijon filiali (12.12.2025; №298-son) hamda Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti klinikasi (17.12.2025; №12) klinikalari amaliyotiga joriy etildi. *Ilmiy yangilikning ijtimoiy samaradorligi* quyidagilardan iborat: ishlab chiqilgan tasnif asosida davolash taktikasini individual rejalashtirish, yuqori xavf guruhlarini erta aniqlash va asoratlarning oldini olish imkoniyatining kengayishi bilan namoyon bo'ldi. *Ilmiy yangilikning iqtisodiy samaradorligi* quyidagilardan iborat: komorbid holatlarni tizimli baholash orqali resurslar maqsadli yo'naltirildi hamda asoratlarni bog'liq qo'shimcha xarajatlar kamaydi. Natijada, bir bemor uchun statsionar davolash xarajatlarini optimallashtirish imkoniyati yaratildi. Bemorga asoratlarni kuzatilsa qo'shimcha kamida 5 kunga statsionar davolanishni talab etadi (shifoxonada bir kunlik davolanishi o'rtacha 487000 so'm tashkil etadi). 5 kunlik qo'shimcha xarajatlari 2435000 so'm mablag' iqtisod qilindi. *Xulosa*: komorbidliklar bo'yicha ishchi tasnif davolashni individuallashtirish bilan birga sog'liqni saqlash tizimida iqtisodiy samaradorlikni oshiruvchi muhim vosita ekanligi isbotlandi;

to'rtinchi ilmiy yangilik: keksa va qariya yoshdagi son suyagi sinishi bo'lgan bemorlarda yallig'lanish markerlarining (C-reaktiv oqsil, interleykin-6, leykositlar miqdori va tana harorati) diagnostik ahamiyati, sezuvchanligi hamda spesifligini aniqlash — operatsiyadan keyingi jarrohlik infeksiyon asoratlari rivojlanish xavfini prognozlash imkonini berishi, shuningdek, klinik amaliyotda ularni barvaqt aniqlash va o'z vaqtida profilaktika qilishni ta'minlashi isbotlangan. Tadqiqot natijalari Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi Andijon filiali (12.12.2025; №298-son) hamda Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti klinikasi (17.12.2025; №12) amaliyotiga joriy etildi. *Ilmiy yangilikning ijtimoiy samaradorligi* quyidagilardan iborat: infeksiyon asoratlarni chastotasining kamayishi, qayta jarrohlik aralashuvlariga bo'lgan ehtiyojning pasayishi va bemorlarning hayot sifatining yaxshilanishida namoyon bo'ldi. *Ilmiy yangilikning iqtisodiy samaradorligi* quyidagilardan iborat: infeksiyon asoratlarni oldini olish, qayta jarrohlik aralashuvlari hamda shifoxonada qo'shimcha yotish kunlari bilan bog'liq xarajatlar sezilarli darajada kamaydi. Bu esa bir bemor hisobiga davolash xarajatlarini qisqartirish imkonini berdi.

Bemorning shifoxonadagi 15 kunlik davri uchun 7305000 so‘m. (shifoxonada 1 kun davolanish o‘rtacha 487000 so‘mni tashkil qiladi); implant o‘rtacha 4544000 so‘mni tashkil qiladi. Asorat kuzatilgan bemorni shifoxonada davolanishi va qayta amaliyot uchun implantlarni ishlatmaslik natijasida 11849000 so‘mni iqtisod qilinishiga imkon beradi. *Xulosa*: infeksiyon asoratlarni oldini olish 1 bemor uchun 11849000 so‘m mablag‘larni iqtisod qilish imkonini berdi.

Tadqiqot natijalari aprobeasiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan 3 ta xalqaro va 3 ta respublika anjumanlarida muhokama qilindi.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 21 ta ilmiy ish chop etilgan bo‘lib, shundan 5 ta ilmiy maqola O‘zbekiston Respublikasi OAK tomonidan tavsiya etilgan jurnallarda nashr qilingan, ularning 3 tasi respublika, 2 tasi esa xorijiy jurnalda chop etilgan. Shuningdek, 1 ta patent (IAP) olingan.

Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rt bob, xulosa, amaliy tavsiyalar va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati, shartli belgilar va atamalar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertasiyaning hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, ularning nazariy va amaliy ahamiyatlari ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish ro‘yxati, ishning aprobeasiyasi natijalari, nashr qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Son suyagi singan keksa va qarilik yoshidagi bemorlarda operatsiya oldi tayyorlash va davolashni ratsional boshqarish muammolari”** birinchi bobida adabiyotlar sharhi keltirilgan bo‘lib, mazkur bob ikki bandedan iborat. Bu bobda mavzu bo‘yicha oxirgi yillarga ta‘luqli MDH va xorijiy adabiyotlar tahlili batafsil yoritilgan. Shuningdek, son suyagi sinishi qaysi xolatda uchrashi, davolash jarayonidagi asoratlar xaqida so‘z borgan. O‘lim ko‘rsatkichining ko‘pligi, bemorlarning 50 foizdan ortig‘ida funksional holati sinishdan avvalgi darajada tiklanmasligi keltirib o‘tilgan. Mazkur bobda son suyagi singan keksa va qariya bemorlarda jarrohlik vaqtini tanlash, kechikish mezonlari va yallig‘lanish markerlarining ahamiyati, kasallikni og‘irlashtiruvchi xavf omillari, ahamiyati keng yoritib berilgan. Yallig‘lanish markerlarning vaqtga bog‘liq kinetikasini o‘rganish shikast og‘irligi, komorbidlik foni, funksiya sustligi va immun javob xususiyatlarini baholash, shuningdek asoratlar, o‘lim va funksional tiklanish prognozini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etishi bo‘yicha adabiyot ma‘lumotlari sharhlangan.

Dissertatsiyaning **“Son suyagi sinishi bo‘lgan keksa va qariya bemorlarni tekshiruv usullari va materiallar”** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot davomida qo‘llanilgan tekshiruv usullari va qamrab olingan bemorlar guruhi haqida batafsil ma‘lumotlar keltirib o‘tilgan.

Klinik tadqiqot 2020-yildan 2025-yilgacha bo‘lgan davr mobaynida Toshkent davlat tibbiyot universiteti ko‘p tarmoqli klinikasining shoshilinch travmatologiya bo‘limida statsionar sharoitda davolangan, son suyagining turli xil sinishlari tashxisi qo‘yilgan 144 nafar keksa va qariya yoshdagi (Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti tasnifiga muvofiq) bemorlarning davolash natijalarini tahlil qilishga asoslangan. Tadqiqot dizayni kogort tahlillarni o‘z ichiga olib, unda bemorlarni operatsiya oldi tayyorlashning ratsional usullari va davolash istiqbolini belgilovchi omillar o‘rganildi. Bemorlarni tadqiqotga kiritishda quyidagi mezonlar inobatga olindi: son suyagining turli xil sinishlari (son suyagi proksimal, diafiz va distal qismi sinishlari) mavjud bo‘lgan bemorlar; yoshi bo‘yicha: JSST tasnifiga ko‘ra keksa (60–74 yosh) va qariya (75–90 yosh) yoshdagi erkak va ayol jinsiga mansub bemorlar; operatsiyadan oldingi va keyingi klinik, laborator hamda rentgenologik ma‘lumotlari to‘liq mavjud bo‘lgan bemorlar; jarrohlik amaliyoti (osteosintez yoki endoprotezlash) o‘tkazilishi rejalashtirilgan va ratsional operatsiya oldi tayyorgarligiga muhtoj bo‘lgan shaxslar.


Bemorlarning kasallik tarixlari tahlil qilinib, operatsiya oldi tayyorgarligi, jarrohlik amaliyoti va operatsiyadan keyingi davr kuzatildi. Tadqiqotga jalb etilgan bemorlar qo‘llanilgan operatsiya oldi tayyorgarlik taktikasi va davolash yondashuviga ko‘ra asosiy va nazorat guruhlariga ajratildi.

Nazorat guruhida (n=70) operatsiya oldi tayyorgarlik va jarrohlik usulini tanlash an‘anaviy klinik-rentgenologik tekshiruvlar hamda standart protokollar asosida amalga oshirildi. Asosiy guruhga (n=74) kiritilgan bemorlarda operatsiya va perioperatsion kechishga ta‘sir etuvchi laborator va klinik yallig‘lanish markerlari kompleks baholandi.

Yallig‘lanish markerlarining diagnostik va prognostik ahamiyati tahlil qilinib, ularning operatsion xavf va asoratlar rivojlanishi bilan bog‘liqligi aniqlandi. Natijada C-reaktiv oqsil, interleykin-6, leykotsitlar soni va tana harorati eng sezgir va klinik jihatdan muhim ko‘rsatkichlar sifatida ajratildi. Ushbu markerlar asosida yallig‘lanish darajasini baholash va jarrohlik aralashuvi uchun xavfsiz operatsion vaqt oralig‘ini aniqlash usuli ishlab chiqildi va klinik amaliyotga joriy etildi.

Klinik kuzatuvlar natijalariga ko‘ra, jarohat sabablari bo‘yicha asosiy va nazorat guruhlarida o‘rtasida farqlar aniqlandi. Asosiy guruhda jarohatlarning asosiy sababi uy sharoitida sodir bo‘lgan yiqilishlar bo‘lib, ular 54,1% holatda qayd etildi, ko‘cha jarohatlari esa 40,5% ni tashkil etdi. Yo‘l-transport hodisalari bilan bog‘liq jarohatlar kam uchrab, 5,4% holatda aniqlandi.

Nazorat guruhida ham uy sharoitidagi yiqilishlar yetakchi sabab bo‘lib, 60% ni tashkil etdi, ko‘cha jarohatlari 37,1% holatda kuzatildi. Yo‘l-transport hodisalari esa eng kam uchrab, 2,9% ni tashkil etdi (1-rasm).



1-rasm. Bemorlarda jarohat sabablari bo'yicha taqsimoti

AO/OTA tasnifi bo'yicha taqsimot

Eng ko'p uchraydigan sinishlar: 31-A (33,3%) va 31-B (30,5%) tiplari. Ya'ni, jami bemorlarning 63,8% qismini proksimal (son suyagi yuqori qismi) sinishlar tashkil etgan. Kam uchraydigan sinishlar: Distal qism (33-A, B, C) va murakkab diafizar sinishlar (32-C) nisbatan kam foizni egallagan (har biri taxminan 2,8–3,5% atrofida) (1-jadval).

1-jadval.

Bemorlarning sinish lokalizatsiyasi va AO/OTA tiplari bo'yicha taqsimlanishi (n=144)

AO/OTA kodi	Asosiy guruh (n=74)	Nazorat guruhi (n=70)	Jami (n=144)	Foiz hisobida (%)
31-B	20	24	44	30,5%
31-A	24	24	48	33,3%
32-A	12	9	21	14,6%
32-B	7	5	12	8,3%
32-C	3	2	5	3,5%
33-A	3	2	5	3,5%
33-B	2	2	4	2,8%
33-C	3	2	5	3,5%
Jami	74	70	144	100%

Tadqiqotimiz davomida keksa va qariya yoshdagi bemorlarning somatik holati o'rganilganda, jami 43 turdagi komorbid patologiyalar aniqlandi va tizimli ravishda tahlil qilindi. Keksa yoshdagi bemorlarda son suyagi sinishlari aksariyat hollarda multimorbidlik (bir vaqtning o'zida bir nechta surunkali kasalliklarning kechishi) fonida yuzaga kelishi kuzatildi.

Tadqiqot guruhlarida aniqlangan yetakchi yondosh kasalliklar quyidagi strukturaviy tahlilga ega:

1. Yurak-qon tomir tizimi patologiyalari: Ushbu tizim kasalliklari bemorlar o'rtasida eng ko'p tarqalgan bo'lib, arterial gipertenziya asosiy guruhda 67 nafar (90,5%) va nazorat guruhida 65 nafar (92,8%) bemorda qayd etildi. Yurak ishemik kasalligi esa asosiy guruhning 90,5% (67 nafar) va nazorat guruhining 95,7% (67 nafar) qismini tashkil etdi. Shuningdek, yurak ritmi buzilishlari nazorat guruhida (50,0%) asosiy guruhga (27,0%) nisbatan statistik jihatdan yuqoriroq ekanligi ma'lum bo'ldi.

2. Nafas olish tizimi va infeksiyon asoratlar: Surunkali bronxit kasalligi asosiy guruhda 56 nafar (75,6%) va nazorat guruhida 58 nafar (82,8%) bemorda aniqlandi. Diqqatga sazovor jihati shundaki, anamnezida COVID-19 o'tkazganlik holati umumiy kontingentning 85,4% qismida (123 nafar) qayd etildi, bu esa operatsiya oldi davrida gemostaz va nafas funksiyalarini chuqur korreksiya qilishni taqozo etdi.

3. Endokrin va metabolik buzilishlar: Modda almashinuvi kasalliklari orasida osteoporoz (umumiy 120 nafar; 83,3%) va semizlik (umumiy 105 nafar; 72,9%) ustunlik qildi. Qandli diabet asosiy guruhda 37,8% (28 nafar) va nazorat guruhida 50,0% (35 nafar) bemorda kechib, jarrohlik amaliyoti uchun qo'shimcha metabolik xavf omili sifatida baholandi.

4. Boshqa tizimli kasalliklar: Qon tizimi tomonidan anemiya holati asosiy guruhda 68,9% (51 nafar) va nazorat guruhida 80,0% (56 nafar) bemorda kuzatildi. Shuningdek, keksa yoshga xos bo'lgan neyrodegenerativ o'zgarishlar — demensiya (15,2%) va Parkinson kasalligi (9,7%) bemorlarning operatsiyadan keyingi rehabilitatsiya salohiyatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar sifatida qayd etildi.

Ushbu tadqiqot klinik-ortopedik va laborator tekshiruvlarini hamda, radiologik tadqiqotlar (rentgenografiya, MSKT, KT-densitometriya (Housfield shkalasi bo'yicha), oyoq qon tomirlarini dupleks skanerlash tadqiqotlari rejasi ishlatildi. Barcha ma'lumotlar keng qamrovli statistik tahlil qilindi.

Son suyagi sinishi bilan og'rikan, ayniqsa keksa va qariyalardagi bemorlarda yallig'lanish jarayonining faolligi kasallik kechishi va jarrohlik xavfini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Asosiy guruhda operatsiya jarayoniga ta'sir ko'rsatuvchi laborator va klinik yallig'lanish markerlari kompleks tarzda o'rganildi.

Yallig'lanish markerlarining operatsion xavf, perioperatsion asoratlar va klinik natijalar bilan bog'liqligi qiyosiy tahlil qilinib, ularning diagnostik va prognostik ahamiyati baholandi. Natijada C-reaktiv oqsil, interleykin-6, leykotsitlar soni va tana harorati eng sezgir va klinik jihatdan ishonchli markerlar sifatida ajratib olindi.

Mazkur markerlar dinamikasini kompleks baholash asosida jarrohlik aralashuvini o'tkazish uchun xavfsiz va maqbul operatsion vaqtni aniqlash yondashuvi ishlab chiqildi. Ushbu yondashuv individual jarrohlik xavfini aniqlash,

operatsiya vaqtini ratsional tanlash va noxush asoratlar chastotasini kamaytirishga qaratilgan muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Dissertatsiyaning **“Son suyagi sinishi bo‘lgan kekxa va qariya bemorlarda operatsiya oldi tayyorgarlikni takomillashtirish”** deb nomlangan uchinchi bobida, bemorni komorbid holatlari va xavf omillarini hisobga olib, operatsiya xavfini aniqlash va yangi ishlab chiqilgan xavfsiz vaqt oralig‘ini aniqlash usullari batafsil taqdim etildi.

Geriatriya amaliyotida komorbidlik — bir bemorda bir vaqtning o‘zida bir nechta surunkali kasalliklarning mavjudligi — muhim muammo hisoblanadi. Komorbidlik yosh ortishi bilan keskin ko‘payib, 65–74 yoshda 62% va 85 yoshda 82% gacha yetadi. Shu sababli son suyagi sinishi bo‘lgan kekxa va qari bemorlarda davolash hamda reabilitatsiya taktikasi tanloviga ta‘sir etuvchi omil sifatida komorbid patologiyani darajasi va ifodalanganligi tahlil qilindi. Bemorlarning anamnestik, klinik va instrumental ma‘lumotlari asosida hamroh somatik patologiya profili tuzildi.

Tadqiqotda yetakchi hamroh kasalliklar sifatida yurak-qon tomir tizimi patologiyalari (miokard infarkti, miya qon aylanishining o‘tkir buzilishi va aritmiyalar), demensiya, bronx-o‘pka tizimi kasalliklari, ovqat hazm qilish va buyrak patologiyalari hamda qandli diabet baholandi. Klinika materialida bemorlarning o‘rtacha yoshi $71,4 \pm 7,4$ yil (maksimal 90 yil) bo‘lib, medikamentoz korreksiyaning talab qiladigan va davolash taktikasi hamda funksional holatga ta‘sir etuvchi komorbid holatlar barcha bemorlarda qayd etildi.

Mazkur sharoitda mahalliy populyasiyaga moslashtirilgan va kompleks yondashuvga asoslangan **“Kekxa va qariyalarda son suyagi sinishida operatsion xavfni aniqlash so‘rovnomasi”** (DGU 27121 30.08.2023) ishlab chiqildi. So‘rovnoma operatsion xavfni tez va standart tarzda baholashga mo‘ljallangan bo‘lib, xavfni oshirishi isbotlangan hamroh kasalliklar 8 yo‘nalishga jamlandi: nerv, yurak-qon tomir, nafas, endokrin/gomeostaz, ovqat hazm qilish, siydik chiqarish, skelet-mushak, psixo-emotsional hamda xulq-atvor omillari. Har bir holat **“bor/yo‘q”** (1/0) prinsipi asosida baholanadi va vazn koeffitsientlari yig‘indisi 100 ballik shkala ko‘rinishida talqin qilinadi.

Integral ball klinik qaror qabul qilishni soddalashtiradi: <10 ball — past xavf; 11–30 — o‘rtacha; 31–50 — yuqori; 51–70 — juda yuqori; 71–100 — o‘ta xavf (vaqtinchalik operatsiyaga qarshi ko‘rsatma, konservativ taktika). Og‘irlik koeffitsientlari korrelyatsion tahlil va ko‘p omilli regressiya natijalari asosida belgilangan bo‘lib, ularning klinik-patofiziologik mazmuni bilan uyg‘unlashtirilgan. Ushbu so‘rovnoma ASA yoki O-POSSUM kabi umumiy shkalalarni inkor etmaydi, aksincha, son sinishida vaqt omili muhim bo‘lgan sharoitlarda ularni mahalliy klinik reallik asosida to‘ldirib, resurslarni oqilona taqsimlash va **“xavfsiz vaqt oralig‘i”**ni rejalashga yordam beradi.

144 nafar bemorda (asosiy guruh 74, nazorat 70) komorbid holatlar tuzilmasi tahlil qilinib, yurak-qon tomir patologiyalari, nafas tizimi kasalliklari, endokrin-metabolik buzilishlar (anemiya, qandli diabet, semizlik) hamda skelet-mushak tizimiga oid holatlar (osteoporoz, sarkopeniya) yuqori uchrash chastotasiga ega

ekani ko'rsatildi. Shuningdek, demensiya, Parkinson, deliriy kabi nevrologik holatlar rehabilitatsiya salohiyatiga ta'sir etuvchi omillar sifatida qayd etildi.

Mazkur tadqiqotda operatsiya oldi davrda klinik ahamiyatga ega bo'lgan 43 ta xavf omili tizimli ravishda tahlil qilindi. O'tkazilgan tahlillar asosida komorbid holatlar ikki asosiy patogenetik guruhga ajratildi: yallig'lanish geneziga mansub va surunkali somatik hamda degenerativ geneziga mansub kasalliklar. Yallig'lanish geneziga mansub holatlar tizimli yallig'lanish reaksiyasini kuchaytirib, gemostaz buzilishlari, mikrosirkulyatsiya yetishmovchiligi va trombotik asoratlar xavfini oshirishi bilan tavsiflanadi. Surunkali somatik va degenerativ kasalliklar esa yurak-qon tomir, nevrologik va metabolik rezervlarning cheklanishi orqali anesteziologik va jarrohlik xavfni belgilaydi.

Mazkur ishchi tasnif yallig'lanish va organ rezervlari o'rtasidagi patofiziologik nisbatni aniqlash, bemorlarni operatsiya oldi davrda ratsional stratifikatsiya qilish hamda jarrohlik vaqtini individual tanlash imkonini beradi. Ushbu yondashuv klassik komorbidlik shkalalarini inkor etmagan holda, ularni keksa va qariya yoshdagi son suyagi sinishi bilan og'rikan bemorlar uchun moslashtirilgan, patogenetik yo'naltirilgan model bilan to'ldiradi va "xavfsiz vaqt oralig'i"ni aniqlashda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek yallig'lanish statusini aniqlash maqsadida 12 ta marker dinamik monitoring qilindi: sitokinlar (IL-1 β , IL-2, IL-4, IL-6, IL-8, IL-10, TNF- α), C-reaktiv oqsil (CRP), tana harorati, leykotsitlar soni, ESR va prokalsitonin. Qiyosiy tahlil natijasida IL-1 β , IL-2, IL-4, IL-8, IL-10, TNF- α , ESR va prokalsitonin ko'rsatkichlari yallig'lanish jarayonining ayrim bosqichlarini aks ettirgan bo'lsa-da, ularning operatsiyadan keyingi asoratlar bilan barqaror va takrorlanuvchi prognostik bog'liqligi aniqlanmadi. Ya'ni ushbu markerlarning yuqori/past darajalari noqulay perioperatsion kechishni ishonchli oldindan aytib bera olmadi, dinamikasi esa individual va o'tkinchi xarakterga ega bo'ldi.

Bunga qarama-qarshi ravishda, IL-6, CRP, leykotsitlar soni va tana harorati yallig'lanish faolligini baholashda eng informativ ko'rsatkichlar sifatida ajralib chiqdi: ularning yuqori darajalari va pasayish dinamikasining sustligi perioperatsion noxush kechish hamda asoratlar xavfi bilan ishonchli bog'liq ekani qayd etildi.

Mazkur 4 marker asosida yallig'lanish holati uch darajaga ajratildi (yengil, o'rta, og'ir) (2-rasm). Jarrohlik aralashuvini o'tkazish uchun xavfsiz vaqt oralig'ini aniqlash usuli travmatologiya amaliyotida keksalik va qarilik yoshida uchraydigan son suyagi sinishlarida jarrohlik aralashuvini eng xavfsiz muddatda o'tkazish uchun (O'zbekiston Respublikasi patenti IAP 8079 29.05.2025) ishlab chiqildi. Olingan qiymatlarga ko'ra yallig'lanish og'irligiga ko'ra uch darajadan ajratildi.

Xavfsiz vaqt oralig'ini tanlash yallig'lanish darajasi va jarrohlikning invazivligiga bog'liq. Minimal invaziv aralashuvlar (intramedullyar osteosintez) yallig'lanish javobini nisbatan kam kuchaytiradi; ochiq aralashuvlar (mas., endoprotezlash, plastina bilan ochiq osteosintez) esa yuqori yallig'lanish yukiga ega. Mazkur vaqt oralig'ini aniqlashda obyektiv mezonlar, ya'ni yallig'lanish markerlari dinamikasi va operatsiyadan keyingi asoratlar chastotasi o'rtasidagi bog'liqlik asosida amalga oshirilgan.

Kiritilgan markerlar: CRP, IL-6, WBC, tana harorati, Markerlarni — 24 soat dinamikasi hisobga olinadi

1) Yengil (kompensatsiya)	2) O'rtacha (subkompensatsiya)	3) Og'ir (dekompensatsiya)
CRP ≤ 18 mg/L	CRP 18–48 mg/L	CRP > 48 mg/L
IL-6 ≤ 7 pg/ml	IL-6 7–25 pg/ml	IL-6 > 25 pg/ml
WBC $\leq 10 \times 10^9/L$	WBC 10–12 $\times 10^9/L$	WBC $> 12 \times 10^9/L$
Tana harorati ≤ 37.0 °C	Tana harorati ≤ 37.5 °C	Tana harorati > 38.5 °C
Markerlar 24 soatda $\geq 10\%$ kamayadi	Dinamikada barqaror pasayish yo'q qo'shimcha	Markerlar sezilarli oshgan

